

Qadimgi uzog'ni yaqin qiluvchi yagona vosita

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

ilmiy xodimi: Yigitaliyeva SH.



Malumki oldingi davrlarda insonlarning kundalik hayotida aravalarning o'rni juda katta ahamiyat kasb etgan. Transport vositalari yaratilgunga qadar aravalalar insonlarni og'ini yengil , uzog'ini yaqin qiluvchi yagona vosita hissoblangan. O'z davrining ajoyib topilmasi bo'lган qo'qon arava hozirgi kunda Namagan viloyati muzeyini korgazmalar zalini bezab , ko'rkiga ko'rк qo'shib turibdi. Bu ajoyib ekspanat Qo'qon aravasi bo'lib, XIX asrga tegishli . Bu arava boshqa hududdagi aravalardan g'ildiragi kattaligi bilan ajralib turgan. Oldidan uzun chiqib turgan taxtasi otlarga mahkamlangan . G'ildirak katta bo'lганligi uchun aravaning balandligi ham shunga yarasha bo'lган va suv uning shotisini ko'mmagan . Binobarin yuk va odam daryodan ho'l bo'lmay o'ta olgan.Qo'qon aravalaring vujudga kelishi uzoq yillik hayotiy va amaliy tajriba mahsulidir . Ya'ni asrlar mobaynida shakllanib ,takomillashib kelgan .U o'z nomini uzil - kesil XVIII asrlarning birinchi yarmida . Qo'qon xonligining ilk yillarida oldi . Qo'qon honligi tarixiga oid "Avzal – ut tavorix"asarining

Qozon shaxrida saqlanayotgan qo'lyozma nushasida keltirilishicha . SHoxruxbiyning o'g'li Abduraximbiy(xonlik davri 1721-1733)Samarqand yurishidan bir yil oldin xo'qandlik aravasoz ustalarni to'plab , O'g'ruq (urush xolatlarida xazina . Zaruriy yuklar .oziq- ovqat va qurol- aslaha zaxiralari olib. Asosiy qoo'shindan keyinroqda yuradigan maxsus karvon (ruscha "обоз ")uchun tez yurar , baquvvat , yo'l siz joylarda ham yura oladigan aravalar yasab berishni so'ragan . Usta Muhiddin usta Baxriddin o'g'li boshliq aravasozlar bir yillik tajriba, izlanish pirovardida katta g'ildirakli aravalar tayyorlagan. Bu paytgacha ham g'ildiraklar asta sekin kattalashib kelayotgan edi.

Usta Muhiddin yasagan g'ildirak esa, oldingi g'ildiraklardan ham katta bo'lган .Qo'qon arava uch qismdan iborat bo'lган

Shoti (aravashoti)

Tegirchak (g'ildirak)

O'q

Shoti 4.5 (bazan 5)metrgacha uzunlikdagi otyog'och (otliq). Sakkizta pog'ona , ikkita so'loq va ayg'izdan iborat . Otyog'ochlar mirzaterakdan yo'niladi. Tegirchak (g'ildirak)gupchak,to'gin ,negey, bellik va yostiq kabi qismlardan iborat.

Tegirchakning hamma qismlari bujun (qayrag'ochning bir turi)dan yasalgan. O'q yog'onligi 40 sm ikki yarim chorak kam uch metrgacha uzunlikdagi silliqlangan bujun yog'ochi bo'lib, ikki uchi ikki tegirchak gunchagiga kiritiladi va ustiga aravashoti mindiriladi. Arava yurganda shoti siljib ketmasligi uchun uning ostiga so'loq o'rnatiladi. XX asrning birinchi choragi oxirigacha aravaga metal ishlatilmagan.

Shu tufayli u daryoda suzish imkoniyatiga ham ega bo'lган. 1904-1906 yillarda Farg'ona vodiysi xar taraflama o'rgangan rus olimi A.F.Middendorf o'zining "Farg'ona"asarida Sirdaryoda suzib ketayotgan Qo'qon aravalari ko'rib qoyil qolganini dunyoning boshqa joylarida suzishga qobil aravarni ko'rmaganini e'tirof etgan va aravaning yasalish jarayonini tasvirlab beradi.

XX asrning yigirmanchi yillaridan boshlab Qo'qon aravalari g'ildiragini temir bilan aylantirib qoplash yo'lga qo'yilgan.

Arvavasozlik atamashunosligida bu temir "aravatemir", uning g'ildirak yog'ochiga (kegaylarga) Mustaxkamlaydigan mix esa , (aravamix) deb nom olgan .

Qo'qon aravalari yuk va odam tashish vositasi bo'libgina qolmay , kezi kelganda mudofaa vositasi sifatida ham foydalanilgan .

Qo'qon xonligi tarixiga oid qator asarlarda keltirilishicha Said Muhammad Xudoyorxon bir necha marta dushmanlari qurshoviga tushib qolganda o'zining qarorgohi va oz qolgan qo'shini atrofini aravalari bilan o'rabi, yordam yetib kelguncha mudofada turgan .

Ma'lumotlarga ko'ra, xatto ulardan belanchak sifatida ham foydalanilgan.

Qo'qon aravavasozlik va egar - jabduq tayyorlash bo'yicha O'rta Osiyoda yetakchilik qilgan. Qo'qon arava 25- 40 futgacha yuk ko'tara olgan va asosan otlar yordamida manzilga olib borilgan.

Bu aravalardan ichki va tashqi savdoda yaxshi foydalanilgan.

G'ildirakli transport sifatida ancha ommalashgan ikki g'ildirakli

Qo'qon aravadan asosan yuk tashish uchun foydalanilgan . Bunday aravada aravakash otning yag'rinda o'tirgan va otni kalta yugan bilan boshqargan.

XIX asr oxori XXasr boshlariga kelib to'qima platforma o'mniga ko'pincha taxta platformadan foydalanilgan. Bu platformaga o'tirgan holda sakkiz kishi joylashishi mumkin bo'lган . G'ildirakning balandligi 1.75metrdan 2 metrgacha yetgan . qo'qon aravalari asosan Farg'ona va Toshkentda keng tarqalga . "Aroba " atamasi arab tilidagi "a'rob" – ya'ni ko'chib yuruvchi.Xarakatlanuvchi so'zidan olingan bo'lib , o'zbekcha talaffuzda "arava" shakliga kelib qolgan .

Qo'qon arava deyarli butun Markaziy Osiyoga tarqaldi va mashxur bo'ldi. Uning boshqa aravalardan farqi tezligi va kattaligidagi bo'lган. Bu arava boshqa aravalardan bir yarim baravar tez harakatlana olgan. Bundan tashqari qo'qon

aravalarda muvozanat ushslash qobilyati kuchli bo'lgan. Yo'lning qaltis joylarida ham noqulaylik tug'dirib ag'anab ketmagan . O'sha davrdagi yo'llardan ariqlar juda ko'p kesib o'tgan, yo'llar notekis bo'lgan.Qo'qon aravalari esa ustidagi odamga hech qanday noqulaylik tug'dirmagan. Bu aravalar odam sakrab o'tishi kerak bo'lgan ariqlardan ham ko'priksiz o'tish imkonini bergen . Hatto yog'ingarchilik ko'p bo'lib yo'llar loy , botqoq bo'lsa ham qo'qon aravalari botib qolmagan .O'z davrining mana shunday odamlarni og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilgan ajoyib topilmasi bugun viloyat muzeyimizni bezab turibdi.Chunki vaqt hamma narsa uchun o'z tasirini o'tkazmay qolmaydi.

ADABIYOTLAR

- 1.Moziydan sado ilmiy-amaliy,ma'naviy-marifiy jurnal 4.(68).2015 yil soni.
- 2.San'at jurnal.2/2013 yil soni.
- 3.San'at O'zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali 1/2018 yil №78
- 4.Tamaddun Tariximizni o'rganamiz 6-sон 2023 y
- 5.Namangan sadosi gazeta 3 soni aprelъ'.
6. Namangan viloyati me'moray obidalar sirlari. Namangan nashriyoti I.YU. Yusupov. E. Yu. Mirzaliev
7. Namangan viloyati ziyoratgoxlari.Namangan shaxri 2015 y. L. Axmadalieva
- 8.Mirzaaliyev E. Namangan viloyat o'lkani o'rganish muzeyi : kecha va bugun. – Farg'ona. Farg'ona nashriyoti, 2010. – B. 18.. 2.Mirzaaliyev E.
9. Namangan viloyat o'lkani o'rganish muzeyi : kecha va bugun. – Farg'ona. Farg'ona nashriyoti, 2010. – B. 22.
10. <https://lex.uz/uz/docs/-3451889>